

Asosiy vazifa va funksiyalari

vazirning qurilish va muhandislik muhofaza ishlari bo'yicha o'rinbosari – vazirga bo'ysunadi, ishlab chiqarish va ijtimoiy ahamiyatdagi ob'ektlarda, shuningdek, yo'l-transport va muhandislik-kommunikasiya infratuzilmalarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, oqibatlarini kamaytirish va bartaraf etishga qaratilgan qurilish ishlarini, rekonstruksiya, kapital ta'mirlash, muhandislik-qurilish, o'rmonchilik

va meliorativ tadbirlarni tashkil etishga javob beradi.

vazirlik ehtiyojlari uchun kapital, shu jumladan uy-joy qurilishi, bino va inshootlarni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlarini tashkil etadi;

vazirlikning qurilishi tugallangan ob'ektlarining davlat qabul komissiyasidan o'tkazilishini tashkil etadi;

vazirlik balansidagi bino va inshootlarni saqlash, foydalanish

va xizmat ko'rsatish tadbirlarini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi;

vazirlikning kapital qurilish va ta'mirlash ob'ektlari, shuningdek, ishlab chiqarish va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, turar joy fondi, yo'l-transport va muhandislik-kommunikasiya infratuzilmalari ob'ektlari bo'yicha buyurtmachi funksiyasini bajaradi va loyihaviy qarorlarning samaradorligini ta'minlaydi;

daryolar o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarni mustahkamlash ishlarini tashkillashtiradi va o'tkazilishi ta'minlaydi, shuningdek, ushbu jarayonda o'zanalardan qum-shag'al materiallarini maqsadli qazib olinishini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

cho'l, yarim cho'l, dasht va tog'li hududlarda o'simlik qoplamalarini tiklash va mustahkamlashga qaratilgan kompleks tadbirlarni tashkillashtirishni va amalga oshirishni, o'stirilgan o'simliklarning parvarishini ta'minlaydi;

buysunuvidagi tuzilmalarda ijro intizomi holatini muhokama qilib, tegishli chora-tadbirlar belgilaydi, ijro intizomini ta'minlashda sustkashlikka yo'l qo'ygan rahbar va xodimlarga nisbatan choralar ko'rish bo'yicha vazirga takliflar kiritadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini nazorat qiladi;

jismoniy va yuridik shaxslar hamda ularning vakillarini shaxsan qabul qiladi;

hududlarda ommaviy va sayyor qabullar o'tkazadi, yakuni bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilaydi.